



## INTERFAOL METODLARNING TA'LIM SAMARADORLIGINI TA'MINLASHDAGI O'RNINI

**Xasanova Shaxnoza Zarifevna,**  
*Qo'qon Universiteti "Ta'lim"  
kafedrasida o'qituvchisi*

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada ijtimoiylashuv o'smir va o'spirinlarning uni o'rab turgan tashqi ijtimoiy muhit ta'sirlariga berilishi, ijtimoiy-axloqiy me'yor va qoidalarini o'zlashtirishga moyilliklari, o'zlashtirganlik darajalarini ifodalovchi jarayon, interfaol o'qitish "ta'lim jarayonining asosiy ishtirokchilari – o'qituvchi, o'quvchi va o'quvchilar guruhi o'rtasida yuzaga keladigan hamkorlik, shuningdek, o'qituvchi ta'lim jarayonida interfaol ta'lim yordamida o'quvchilarning qobiliyatlarini rivojlantirish, mustaqillik, o'z-o'zini nazorat, o'z-o'zini boshqarish, samarali suhbat olib borish, tengdoshlari bilan ishlash, ularning fikrlarini tinglash va tushunish, mustaqil hamda tanqidiy fikrlash, muqobil takliflarni ilgari surish, fikr-mulohazalarini erkin bayon qilish, o'z nuqtai nazarlarini himoya qilish, muammoning echimini topishga intilish, murakkab vaziyatlardan chiqqa olish kabi sifatlarni shakllantirish haqida so'z boradi.*

***Kalit so'zlar:** ijtimoiylashuv, o'smir va o'spirinlar, ta'lim jarayoni, interfaol metodlar, mustaqil hamda tanqidiy fikrlash, murakkab vaziyatlar, qobiliyat.*

Ijtimoiylashuv o'smir va o'spirinlarning uni o'rab turgan tashqi ijtimoiy muhit ta'sirlariga berilishi, umum tomonidan qabul qilingan ijtimoiy-axloqiy me'yor va qoidalarini o'zlashtirishga moyilliklari, o'zlashtirganlik darajalarini ifodalovchi jarayon sanaladi. Ushbu jarayon negizida o'smir va o'spirinlarning tug'ilib, o'zlarni bevosita o'rab turgan tashqi muhit ta'sirida ulg'ayishlari, shu jamiyat, shu atrof-muhit qurshovida tarbiyalanishlari yotadi. Oila muhiti har bir o'smir va o'spirinlar uchun birlamchi, dastlabki ijtimoiylashuv maskani hisoblanadi. O'smir va o'spirinlarning ijtimoiylashuvini ta'minlovchi ikkilamchi maskanlari: barcha bosqichdagi ta'lim muassasalari, "Mehribonlik uylari", maxsus internatlar hamda harbiy bilim yurtlari sanaladi. Chunki o'smir va o'spirinlar bu erlarda nisbatan uzoq vaqt mobaynida tarbiyalandi, u era qaror topgan me'yorlar, qadriyatlar va talablar ta'sirida dunyoqarashi shakllanadi, shaxs bo'lib etishishadi.

Tor ma'noda ijtimoiylashuv o'smir va o'spirinlarning ijtimoiy muhitga kirib borishi, unda singib ketishi, tashqi ijtimoiy muhit me'yorlarini qabul qilib ularga rioya qilishi yoki qilmasligini tushuntiruvchi jarayondir. "Ijtimoiylashuv" tushunchasi ma'no jihatdan yaqin bo'lgan ikki xil: "tarbiya" va "moslashuv" tushunchalar bilan bog'liq. Ijtimoiylashuv tarbiya jarayonidan ancha keng. Chunki uning mazmunida har doim ham qolipga solib bo'lmaydigan, har doim ham o'smir va o'spirinlar tomonidan anglanmaydigan xolatlar ham aks etadi. Moslashuv esa ijtimoiylashuvning muhim tarkibiy qismi, uning mexanizmi sifatida e'tirof etiladi. Ijtimoiy psixologik moslashuv, ya'ni, o'smir va o'spirinlarning ijtimoiy



munosabatlarga ko`nikishi va moslashishi orqali orttirgan tajribalari umumiy ijtimoiylashuvning bir ko`rinishidir.

Ijtimoiylashuv jarayonida o`smir va o`spirinlar jamiyatdagi ijtimoiy me`yorlarni o`zlashtiradi, turli rollarni bajarishga o`rganadi, jamoatchilik sharoitida o`zini tutish ko`nikmalarini hosil qiladi. O`smir va o`spirinlarning ijtimoiylashuvi shu ma`noda uning ijtimoiy borliqni bilishiga, anglashiga asoslanadi.

An`anaviy ta`limda ham tabiiy ravishda suhbat asosini axborot tashkil etadi. Ammo axborot uzatishning asosiy manbai o`qituvchining tajribasi bo`lib, bu jarayonda u etakchilik, dominantlik qiladi, ya`ni u darsning asosiy vaqtida bilimlarni og`zaki tarzida o`quvchi (talaba)larga etkazib berishga intiladi. Faollik ko`rsatish o`qituvchigagina xos bo`lib, o`quvchi (talaba)lar bu vaziyatda sust tinglovchi bo`lib qoladi. Ularning asosiy vazifasi o`qituvchini tinglash, zarur o`rinlarda yozish, savollar bilan murojaat qilinganida javob qaytarish, kam holatlarda ruxsat etilganidagina so`zlashdan iboratdir.

An`anaviy ta`limdagi bir tomonlamalik oliy ta`lim tizimidagi faqat ma`ruza mashg`ulotlarida emas, seminar darslarida ham ustuvorlik qiladi. Unga ko`ra, "etkazib beruvchi" rovida endi o`qituvchi emas, balki o`quvchi (talaba) namoyon bo`ladi. O`quvchi (talaba), asosan, o`zi o`zlashtirgan bilimlarni namoyish etadi, o`qituvchi esa uning fikrlarini tinglaydi, zarur o`rinlarda savollar bilan murojaat qiladi. O`quvchi (talaba)lar guruhi (jamoasi) bu vaziyatda butunlay sust ishtirokchi, tinglovchi bo`lib qoladi. Bir qarashda o`quvchi (talaba) yoki o`qituvchi tomonidan uzatilayotgan axborotlarning qabul qilinishi talabalar guruhi (jamoasi) uchun bilimlarni o`zlashtirish imkoniyatini yaratayotgandek taassurot uyg`otadi. Biroq, psixologik tadqiqot natijalarining ko`rsatishicha, shu tarzda qabul qilingan bilim (ma`lumot)lar juda tez unutiladi. Xususan, amerikalik psixolog olimlar R.Karnikau va F.Makelrouning o`rganishlariga ko`ra shaxsning tabiiy fiziologik-psixologik imkoniyatlari muayyan shakllarda o`zlashtirilgan bilimlarni turli darajada saqlab qolish imkonini beradi. Ya`ni shaxs: manbani o`zi o`qiganida 10 %; ma`lumotni eshitganida 20 %; sodir bo`lgan voqea, hodisa yoki jarayonni ko`rganida 30 %; sodir bo`lgan voqea, hodisa yoki jarayonni ko`rib, ular to`g`risidagi ma`lumotlarni eshitganida 50 %; ma`lumot (axborot)larni o`zi uzatganida (so`zlaganida, bilimlarini namoyish etganida) 80 %; o`zlashtirilgan bilim (ma`lumot, axborot)larni o`z faoliyatiga tatbiq etganida 90 % hajmdagi ma`lumotlarni yodda saqlash imkoniyatiga ega. <sup>1</sup>

<sup>1</sup> Tolipov O`., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. – T.: Fan, 2005. – 205 b.



Shunga ko`ra interfaol o`qitish “ta`lim jarayonining asosiy ishtirokchilari – o`qituvchi, o`quvchi va o`quvchilar guruhi o`rtasida yuzaga keladigan hamkorlik, qizg`in bahs-munozalar, o`zaro fikr almashish imkoniyatiga egalik asosida tashkil etiladi, ularda erkin fikrlash, shaxsiy qarashlarini ikkilanmay bayon etish, muammoli vaziyatlarda echimlarni birgalikda izlash, o`quv materiallarini o`zlashtirishda o`quvchilarning o`zaro yaqinliklarini yuzaga keltirish, “o`qituvchi – o`quvchi – o`quvchilar guruhi”ning o`zaro bir-birlarini hurmat qilishlari, tushunishlari va qo`llab- quvvatlashlari, samimiy munosabatda bo`lishlari, ruhiy birlikka erishishlari kabilar bilan tavsiflanadi.

Interfaol ta`lim mohiyatiga ko`ra suhbatning “o`quvchi – axborot-kommunikatsion texnologiyalar” shaklida tashkil etilishi o`quvchi (talaba)lar tomonidan mustaqil ravishda yoki o`qituvchi rahbarligida axborot texnologiyalari yordamida BKMning o`zlashtirilishini anglatadi.

Interfaol ta`lim mohiyatiga ko`ra suhbatning “o`quvchi – axborot-kommunikatsion texnologiyalar” shaklida tashkil etilishi o`quvchi (talaba)lar tomonidan mustaqil ravishda yoki o`qituvchi rahbarligida axborot texnologiyalari yordamida bilim, ko`nikma, malakalarning o`zlashtirilishini anglatadi.

O`qitishning interfaol ta`limga asoslanishi bir qarashda nihoyatda oddiy, sodda va hatto “bolalar o`yini” kabi taassurot uyg`otadi.

O`qituvchi ta`lim jarayonida interfaol ta`lim yordamida o`quvchilarning qobiliyatlarini rivojlantirish, mustaqillik, o`z-o`zini nazorat, o`z-o`zini boshqarish, samarali suhbat olib borish, tengdoshlari bilan ishlash, ularning fikrlarini tinglash va tushunish, mustaqil hamda tanqidiy fikrlash, muqobil takliflarni ilgari surish, fikr-mulohazalarini erkin bayon qilish, o`z nuqtai nazarlarini himoya qilish, muammoning echimini topishga intilish, murakkab vaziyatlardan chiqa olish kabi sifatlarni shakllantirishga muvaffaq bo`ladi. Eng muhimi, interfaol metodlarni qo`llash orqali o`qituvchi o`quvchilarning aniq ta`limiy maqsadga erishish yo`lida o`zaro hamkorlikka asoslangan harakatlarini tashkil etish, yo`naltirish, boshqarish, nazorat va tahlil qilish orqali xolis baholash imkoniyatini qo`lga kiritadi.<sup>2</sup>

Quyida bugungi kunda respublika ta`lim tizimi amaliyotida keng va faol qo`llanilayotgan bir nechta interfaol metodlarning mohiyati to`g`risida so`z yuritiladi.

**I. “Zinama-zina” strategiyasi.** Bu strategiya talabalarda o`rganilayotgan mavzuni kichik mavzularga ajratilgan holda rasm, tasvir, jadval yoki slaydlar asosida

<sup>2</sup> Z.K.Kalendarova. O`quvchilarning kommunikativ savodxonligini ta`minlashda dars materiallarini tanlash. // Yoshlar va tadbirkorlikni qo`llab-quvvatlash – mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning muhim omili. WWW.kokanduni.uz. Халқаро илмий-амалий конференция. 2024.17-22.б.



o`rganish ko`nikmalarini shakllantiradi. Shuningdek, u talabalarda mavzuni o`rganishga ijodiy yondashish, shaxsiy fikr, o`zlashtirilgan tushunchalarni tasviriy ko`rinishlarda ifodalash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi. Undan foydalanish tartibi quyidagicha:

1. O`rganiladigan mavzu muayyan qismlarga ajratilib, alohida qog`ozlarda ifodalanadi.

2. Talabalar kichik guruhlariga biriktiriladi.

3. Har bir guruhga muayyan qismdagi matn taqdim etiladi.

4. Guruhlar o`zlariga berilgan qism matni bilan tanishib, uning mohiyatini belgilangan vaqt ichida markerlar yordamida rasm, tasvir, jadval yoki slaydlar shaklida ifoda etadi.

5. Belgilangan vaqt tugagach, guruhning bir nafar a`zosi o`zi bajargan ish bilan jamoani tanishtiradi.

6. Barcha guruhlarining ishlari o`rganilgach, jamoa tomonidan o`zlashtirilgan mavzuning umumiy obrazi kichik mavzular mohiyatini yorituvchi rasm, tasvir, jadval yoki slaydlar asosida mantiqiy ketma-ketlikda yozuv taxtasida zinama-zina ko`rinishida joylashtiriladi.

7. O`qituvchi guruhlar tomonidan taqdim etilgan ishlarga izoh berib, zarur o`rinlarda ularga o`zgartirishlar kiritadi.

8. Guruhlarning ishlari ularning mazmuni, sifati va dizayniga ko`ra baholanadi (baholash jarayoni rangli kartochkalar vositasida amalga oshiriladi, ya`ni o`quvchilar o`zlari sifatli deb topgan ishni rangli kartochkalar yordamida belgilaydi (ish ustiga kartochka yopishtiriladi), eng ko`p kartochkaga ega ish uchun yuqori ball beriladi.

Mashg`ulotlarda strategiyani qo`llashda quyidagi shartlarga amal qilinadi:

1. Kichik mavzular bo`yicha imkoni boricha ma`lumotlarni to`liq bayon etish.

2. Kichik guruhlarining ishlariga xolis baho berish.<sup>3</sup>

**II. “Kungaboqar” strategiyasi.** Mazkur strategiya talabalarda muammolarni echish, umumlashtirish, mustaqil fikrlash va o`z fikrlarini erkin bayon qilish ko`nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. U o`rganilgan mavzuni takrorlash, talabalarning u borasidagi bilimlarini mustahkamlash, talabalar tomonidan egallagan bilimlar darajasini aniqlashda samarali sanaladi.

Mazkur strategiya quyidagi tartibda qo`llaniladi:

1. O`quvchi (talaba)lar 4-5 nafardan kichik guruhlariga biriktiriladi.

<sup>3</sup> Z.K.Kalendarova. Maktabgacha yoshdagi bolalarda bilish jarayonining rivojlanishi kompetentsiyalarini shakllantirish. “Maktabgacha ta`lim: xalkaro tajriba va zamonaviy yondashuvlar”. – Toshkent, 2021. 27-may. B. – 104 - 106 b.



2. O`qituvchi o`rganilayotgan mavzu bo`yicha bitta (yoki har bir guruh uchun bittadan) muammoni o`rtaga tashlaydi.

3. Guruhlar tomonidan topshiriqni bajarish uchun vaqt (10 daqiqa) belgilanadi.

4. Berilgan topshiriqqa muvofiq har bir guruh muammo va uning echimlari asosida yozuv taxtasida kungaboqar hosil qiladi (bunda markazga doira chizilib, uning atrofiga “gulbarglar” yopishtiriladi).

5. Belgilangan vaqt ichida talabalar jamoa yoki guruh bo`lib, o`rtaga tashlangan muammolar bo`yicha fikr almashadi (fikrlar “gulbarg”ga yozilib, tegishli muammo yozilgan “gul” (ya`ni doira)ga joylashtiriladi).

6. Topshiriq to`la bajarilgach, har bir guruh o`z ishini namoyish qiladi.

7. Sinf (guruh) jamoasi a`zolari har bir kichik guruhning ishi bilan tanishib, muammo yuzasidan tug`ilgan savol va mulohazalarni “kungaboqar”ning poyasiga barg sifatida yopishtirib chiqadi.

8. Har bir guruh o`ziga berilgan savollarga javob qaytaradi.

9. Barcha kichik guruhlarning ishlari o`rganilib, muhokama qilingach, o`qituvchi mashg`ulotga yakun yasaydi.

Xulosa qilib aytganda interfaol metodlar zamonaviy o`qitish jarayonida talabalarning o`zaro, birgalikda, ya`ni, juftlikda, kichik guruha yoki katta guruhda o`quv materiallarini o`zlashtirish imkoniyatini ta`minlaydi. Interfaol metodlarni qo`llash nafaqat ta`lim jarayonida, balki ta`limdan tashqar sharoitda ham amalga oshirilishi mumkin. Bunga ko`ra talabalar o`zlariga topshirilgan vazifalarni komp`yuter texnologiyasi bilan muloqotda sherigi, guruhdoshlari bilan o`zaro onlayn muloqot asosida bajarish hamda BKMni o`zlashtirish imkoniyatiga ega bo`ladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8 октябрдаги “Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиqlаш тўғрисида” ги ПФ-5847-сонли Фармони.
2. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 7 июндаги “Олий таълим муассасалари рейтингини аниqlаш тартибини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги №467 – сонли Қарори.
3. Tolipov O`., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. – T.: Fan, 2005. – 205 b.
4. Ishmuhamedov R., Yuldashev M. Ta`lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar.-T.: “Nihol nashryoti, 2013 yil 278 bet.
5. Xodjaev B.X. Innovatsion ta`lim texnologiyalari modulidan ma`ruza matnlari. - T.:2015.



6. Махкамов, А. Ю., И. Х. Алиева, and Д. М. Абдуғаниева "Умумтаълим мактабларида спорт тўғарақларини ташкил этиш орқали таълим-тарбия самарадорлигини ошириш." сборники конференций ниц социосфера. по vedecko vydavatel'ske centrum sociosfera-cz sro, 2016.
7. Z.K.Kalendarova. Maktabgacha yoshdagi bolalarda bilish jarayonining rivojlanishi kompetentsiyalarini shakllantirish. "Maktabgacha ta'lim: xalkaro tajriba va zamonaviy yondashuvlar". – Toshkent, 2021. 27-may. B. – 104 -106 b.
8. Abduraxmonova, N. A. qizi. (2023). BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARINING IJODIY FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA. Educational Research in Universal Sciences, 2(12), 208–211. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/5507>
9. Nargiza, V. (2023). TARBIYA JARAYONIDA OILA MAHALLA HAMDA TA'LIM MUASSASALARINING O'ZARO HAMKORLIGI. QO'QON Rasuljonovna, E. Z. . (2023). Bolalar Kitobxonligi Va Mediya Muhitida Bolalik Konseptining Ifodalanishi. Miasto Przyszłości, 40, 329–334. Retrieved from <https://miastoprzyszlosci.com.pl/index.php/mp/article/view/1820>
10. Qaxxorova, M. (2024). GORNER SXEMASINING MATEMATIK ANALIZGA TATBIQI. Universal xalqaro ilmiy jurnal, 1(1), 3-9.
11. Erkinjonova, G. F. Q. (2021). BOLALAR KITOBXONLIGINI RIVOJLANTIRISHDA OILANING ORNI. Scientific progress, 2(2), 339-343.
12. Ikromjonovna, J. S. (2023). THE ROLE OF FOLK TALES AND EPIC MOTIVES IN THE POETRY OF USMAN AZIM. Open Access Repository, 9(4), 545-548.
13. qizi Boymirzayeva, S. O. (2024). MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTIDA BO 'LAJAK TARBIYACHINING KREATIVLIGINI RIVOJLANTIRISH. GOLDEN BRAIN, 2(7), 41-47.
14. Рахматуллаева, С. И. (2020). ЎЗБЕКИСТОНДА САЛОМАТЛИК МАСАЛАЛАРИ. In ОБЩЕСТВЕННЫЕ НАУКИ В СОВРЕМЕННОМ МИРЕ: ПОЛИТОЛОГИЯ, СОЦИОЛОГИЯ, ФИЛОСОФИЯ, ИСТОРИЯ (pp. 103-107).
15. Temirova Mashhura Muhammadaminovna (2022). O'ZBEKISTON RESPULIKASI ICHKI ISHLAR ORGANLARIDA KITOBXONLIKNI RIVOJLANTIRISHGA DOIR AYRIM MULOHAZALAR (Farg'ona viloyati MIA misolida). Research Focus, (Special issue 1), 52-55.
16. Z.K.Kalendarova. O'quvchilarning kommunikativ savodxonligini ta'minlashda dars materiallarini tanlash. // Yoshlar va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash – mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning muhim omili. WWW.kokanduni.uz. Халқаро илмий-амалий конференция. 2024.17-22.b.
17. Z.K.Kalendarova. MAKTABGACHA TA'LIMDA HORIJY TAJRIBALARNI QO'LLASHNING AHAMIYATI // INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE "INTERNATIONAL EXPERIENCE AND



MODERN APPROACHES IN PRESCHOOL EDUCATION” 15 MAY, 2024.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11201866>

18. Imomaliyeva, M. (2024). NODIRA MELODIES OF NAVOI. QO ‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 10, 121-123.
19. Otto, M., & Thornton, J. (2023). MAKTABGACHA INKLYUZIV TA’LIM SHAROITIDA BOLALAR NUTQINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI. QO ‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 408-411.
20. Imomaliyeva, M. I. (2021, April). THE EVOLUTION OF METAPHORICAL MEANING. In E-Conference Globe (pp. 25-26).
21. Maxliyoxon, O., & Shaxnozaxon, J. (2024). DRAMA AND ARTISTIC READING IN PRIMARY GRADES: Study guide. ISBN-13, 979-8324468415.
22. Maxliyoxon. (2024). [MODERN INTEGRATION OF PRIMARY EDUCATION, ART, PEDAGOGY AND INFORMATION COMMUNICATION](#). ISBN-13 : 979-8323781928 1, 158
23. Odilova, M. (2024). O’ZBEKISTON TA’LIM TIZIMIDA PISA TESTINING ISTIQBOLLARI. Nordic\_Press, 3(0003).

